

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Usmonov	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
Sh.M.Ro'ziqulov	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar	344
E.A.Botirov	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar)	348
A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari	353
Sh.Y.Qudratov	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
U.K.Yuldashev	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi	362
M.B.Abduraimova	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century	369
M.A.Мубинов	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами	372
A.T.Ochilov	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
L.N.Muxamadiyeva	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom	387
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi	393
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	398
G.O.Ismailova	
"Qutadg'u biling"dagi Allohnning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari	402
L.B.Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni	406
N.U.Ochilova	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida	411
Х.Ч.Чамолова	
Таъсирпазирии Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
M.Z.Djalaldinova	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark	421
X.B.Hasanova	
Xudoyerberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
G.O.Abdujalilova	
Bahodir Qobulning "Enashamol" qissasida milliylikning aks etishi	429

TILSHUNOSLIK

R.R.Sayfullaeva,N.I.G'aybullayeva	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida	432
M.Y.Mamajonov	
Muloqot psixolingvistik hodisa sifatida.....	438
Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova	



TUYG'U VA KECHINMANING POETIK JILOSI
ПОЭТИЧЕСКИЙ БЛЕСК ЧУВСТВ И ПЕРЕЖИВАНИЙ
THE POETIC BRILLIANCE OF FEELINGS AND EXPERIENCES

Matyoqubova Tozagul

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada G'.G'ulomning ijod jarayoni bilan bog'liq badiiy obrazlardan foydalanish mahorati o'rganilgan. Unda shoir lirikasidagi qalam, qalamdon, qog'oz, she'r, shoir va boshqa obrazlar tahlil etilgan. Ushbu obrazlar shoirga ruhiy kechinmalarni tasvirlash, xayol va tafakkur ufqining berouyonligini aks ettirish imkonini berganligi yoritilgan. G'.G'ulom ijod jarayoni, ilhom onlari bilan bog'liq tuyg'u-kechinmalarni poetik obrazlar vositasida nafis poetik jilolantirgan. Ularni o'rganish shoir ijodiy labaratoriyasiga nazar tashlash, harakatdagi ijodiy lahzalarni kuzatishga yo'l ochishi, shubhasizdir. Maqolada ilgari surilgan fikr-mulohazalar tadqiqotchi tomonidan muxtasar holda umumlashtirilgan.

Аннотация

В данной статье исследуется способность Г.Гулома использовать художественные образы, связанные с творческим процессом. Анализируются ручка, пенал, бумага, стихотворение, поэт и другие образы в лирике поэта. Объясняется, что эти образы позволили поэту описать душевые переживания, отразить безграничный горизонт воображения и мышления. Г.Гулам изящно отполировал посредством поэтических образов чувства и переживания, связанные с творческим процессом, моменты вдохновения. Нет сомнения, что их изучение открывает возможность заглянуть в творческую лабораторию поэта, наблюдать творческие моменты в действии. Мнения, высказанные в статье, кратко обобщены исследователем.

Abstract

This article examines G.Gulom's ability to use artistic images associated with the creative process. The pen, pencil case, paper, poem, poet and other images in the poet's lyrics are analyzed. It is explained that these images allowed the poet to describe emotional experiences and reflect the boundless horizon of imagination and thinking.

G. Ghulam gracefully polished through poetic images the feelings and experiences associated with the creative process, moments of inspiration. There is no doubt that studying them opens up the opportunity to look into the poet's creative laboratory and observe creative moments in action. The opinions expressed in the article are briefly summarized by the researcher.

Kalit so'zlar: Ijod, shoir, she'r, obraz, poetik ifoda, ijod labarotoriyasi, badiiy mahorat, lirik qahramon, tuyg'u, kechinma, so'z san'ati, an'ana, o'ziga xoslik.

Ключевые слова: Творчество, поэт, стихотворение, образ, поэтическое выражение, творческая лаборатория, артистизм, лирический герой, эмоция, опыт, искусство слова, традиция, оригинальность.

Key words: Creativity, poet, poem, image, poetic expression, creative laboratory, artistry, lyrical hero, emotion, experience, word art, tradition, originality.

KIRISH

Adabiyot tarixida ko'plab yetuk ijodkorlar ruhiy kechinma va tuyg'uni ta'sirchan yoritishda so'z san'ati va u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalardan badiiy obraz sifatida foydalanganini ko'rish mumkin. She'r, qalam, qalamdon, siyoh, siyohdon, qog'oz, davot va boshqa obrazlar turli-tuman badiiy maqsadlarda keng qo'llanilgan. Jumladan, g'azal mulkinining sultonni Alisher Navoiy ilohiy ishq o'tini raqam aylar ekan: «So'zdin kuyar qalam, qurur qora, erir davot» [6. 93], deb yozadi. Shoir «qalam», «siyoh», «davot» tushunchalari yordamida g'oyat mubolag'ali tasvir yaratishga erishadi, ma'nnaviy-ruhiy kechinmani bor emotSIONAL qudrati bilan tasvirlaydi.

O'z iqtidori, badiiy qobiliyat, ijodiy merosining ko'lami, milliy adabiyot va madaniyat oldidagi xizmatlari jihatidan Alisher Navoiydan keyingi yuksak o'rinda turishi e'tirof etilgan [2. 5] Muhammad

Rizo Ogahiy «*qalam*», «*qalamdon*», «*juzvdon*», «*qog'oz*», «*davot*» singari obrazlarga faol murojaat etadi. Ogahiyning «*Qalamga xitob*», «*She'riy madhal*» singari g'azal va masnaviyalarida o'shanday baytlarni kuzatish mumkin. Ularda Oyning alohida iltifot ko'rsatib, shoirga davotu qog'oz tutishi, Atorudning qalamini yo'nishni odat qilishini istab qolgan xayolotning yuksak ufqlariga ko'tarilgan onlarini uchratish mumkin: «*Yonimda Atoruding hamisha, Qilsin qalamim yo'norni pesha*», – deya falakka murojaat qiladi Ogahiy.

Shota Rustaveli esa o'zining «Dostonlarda bilinadi shoirlarning a'losi», - degan e'tiqodida sobit turib yaratgan «*Yo'lbars terisini yopingan pahlavon*» asarida go'zal Tamarani ta'riflar ekan: «*Aqiq ko'zning qo'llaridan siyoh ichdi qalamim, Nishtar kabi yuraklarni tilsin kuyim-alamim!*» [11. 8] – degan misralarni bitadi.

Ko'rindiki, turli davr va sharoitda yashab ijod etgan shoirlarning asarlarida badiiy ijod va u bilan bog'liq tushunchalar ruhiy kechinmalarni tasvirlashda, xayol va tafakkur ufqining bepoyonligini aks ettirishda mahorat bilan istifoda qilingan.

Mumtoz adabiyot an'analarini ijodiy davom ettirgan G'afur G'ulom she'riyatida ham bunday obrazlarni ko'plab uchratish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

G'.G'ulom hayoti va ijodiy faoliyati o'z davridan to shukungacha adabiyotshunoslari, ilm va ijod ahli diqqat-markazida bo'lib kelgan. O'zbek adabiyotshunosligida G'.G'ulomning she'riy, nasriy va tarjima asarlari ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Shoir she'riyati S.Mamajonov [3], A.Akbarov [1], B.Nazarov [7], O.Sharafiddinov [10] singari adabiyotshunoslari tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan. T.Matyoqbovaning maqola [4. 40-43] va tadqiqot [5] larida shoirning badiiy mahorati, she'riyatidagi tuyg'ular tovlanishi muayyan darajada tahlilga tortilgan. Ammo shoir she'riyatidagi ijod onlari bilan bog'liq obrazlarning badiiy ifodasi nisbatan kam o'rganilgan. Biz ushbu o'rinda G'.G'ulom lirikasidagi ushbu masalani o'rganish orqali shoir she'riyatida tuyg'u-kechinma va ifodaning o'ziga xosligi haqida ayrim umumlashmalarimizni ilgari suramiz.

Jahon adabiyotshunosligida she'rshunoslik sohasida XX asr lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish, davrlashtirish, she'r shakli va mazmunida yuz bergan o'zgarishlar mohiyatini ko'rsatish singari ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda alohida ijodkor adabiy merosini qayta baholash, poetik o'ziga xosligini belgilashga bo'lgan intilish ortdi. Binobarin, XX asr adabiyotini o'rganish bo'yicha to'plangan ilmiy-nazariy fikr-qarash va amaliy tajribalar betakror iste'dod sohibi G'afur G'ulom she'riyatining poetik o'ziga xosliklarini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu maqolada qo'yilgan ilmiy muammo tadqiqiga muvofiq qiyosiy-tarixiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

G'afur G'ulom o'z iste'dodini insoniyatning porloq ertasi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik mehnatini sharaflashga safarbar etgan shoirdir. U «*Insoniyat bayrami*» qasidasining maqta'sida umumiyligi poetik fikrni yakunlar ekan, o'z taassuroti, kechinma va tuyg'ularini qalamga murojaat qilish orqali quyidagichka ifoda etadi:

Salomat bo'l, ey qalam, tongotarlar yo'ldoshim,
Tilingdan satrlarga oqadi hamisha nur.
Odamzod ulug'ligi yozilgan har varaqning
So'zlari brilliantdan, nuqtalari javohir. [14.155]

Qasida janri tabiatan maqtov va dabdabani xush ko'rishini yaxshi bilgan G'afur G'ulom ushbu qasidai madhiyada qasidachilik an'anasisiga xos barcha jihatlardan o'rinni foydalanadi. She'rda falsafiy mazmun teranligi, tabiat tasvirlariga o'rinni ajratilganligi, ayrim voqealarning hajv qilinishi, o'z-o'zidan faxrlanish tuyg'ulari ham ifoda etilganligi fikrimizni dalillaydi. Qolaversa, «*nasib*», «*gurizgoh*», «*madh*», «*qasd*» kabi tarkibiy unsurlari borligi jihatidan ham asar aynan qasida janriga xos xususiyatlarga egadir. She'rning yigirma sakkiz banddan iboratligi esa, uning hajman ham janr talablariga muvofiq bitilganligini ko'rsatadi.

Tasvir obyekti bo'lgan «*qalam*»ni yorqin ifodalashga intilgan G'afur G'ulom uni xuddi yaqin yo'ldoshiday his etadi, unga salomatlik tilaydi. Zero, aynan shu yo'ldoshning salomatligi shoirga uzun tunlarni nurli tonglarga ulash imkonini bergen. «*Qalamning tili*» haqida gapirilganida, tasvir ob'ektiga yondashishda jonlantirishning bo'lgan intoq turidan foydalaniladi. Tilidan «*hamisha nur*

ADABIYOTSHUNOSLIK

oqadi» deyilganida qo'llanilgan istiorada qalam bilan bitilgan satrlarning nurday tiniq va yorqinligi ko'ngillarni ravshan etib, qalblarni ilitishi nazarda tutiladi. Shu tariqa o'xshash ko'chimlardan o'rinci foydalanish orqali shoir obrazli tasvir yarata olgan.

Keyingi ikki misrada varaqdag'i har bir nuqta va so'zning qimmati brilliant va javohir kabi tarashlanib, sayqal berilgan qimmatbaho toshlarga tenglashtiriladi. Shoir varaq betidagi «*nuqta*» va «*so'z*»ni «*odamzod ulug'ligi yozilgan*»ligi uchun alohida qimmatga ega deb e'zozlaydiki, bundan G'afur G'ulomning insonni kuylash adabiyotning bosh maqsadi deb tushunganligi namoyon bo'ladi.

Agar G'afur G'ulom qalamni «*qalb orqali aqlga tarjimon*» deb bilganligi e'tiborga olinsa, shoirning yuqoridaq xulosalari nechog'lik tabiiyligi anglashiladi. «*Aql va qalam*» she'rida: «*Qalamim qabrimning tug'iga dasta*», - deb bashorat qilgan shoir ijod ahlining muhim quroli bo'lgan qalam orqali, umuman ijodini nazarda tutadi. Miqdor jihatidan biror predmet belgilarni boshqasiga ko'chirib, qismda yaxlit butunlik va umumiylikni ifoda etishda sinekdoxani qo'llaydi. Bu bilan shoir kelajakka bo'lgan ishonch va umidini ifoda eta oladi, ijod namunalarining mangulikka daxldorligiga ishora qiladi. Ayni paytda, insonparvarlikka yo'g'rilgan, xalq va vatan manfaatlarini ko'zlovchi samimiyl dil so'zlarining e'zoz topajagini alohida ishonch va umidvorlik bilan ta'kidlaydi.

G'afur G'ulomning «*Yangi ishq*» she'rida “she'r” va “shoir” tushunchalari poetik kashfiyat darajasiga ko'tariladi. Mazkur poetik obrazlar vositasida shoir she'rdagi har bir hijo shoirning yurak qoni bilan yaratilishi, tashbeh, qofiyalar she'rning muhim unsuri ekanligini badiiy jilolantiradi. She'rning o'ziga xos tomoni shundaki, shoir unda o'z ko'z qorachig'i, o'tli yoshligi butun mazmuni bilan she'riga ko'chishini istaydi. Ko'z qorachig'iga jo bo'lgan so'nmas muhabbat jilvasi poetik misralarga ko'chishi, har bir she'r dard bilan, sevgi bilan yozilishini istaydi. Bu jihatdan ushbu misralar alohida e'tiborga molikdir:

Ba'zan etak tutqizmas – she'r sevimli yor...

Hunarimga bo'laman shunda ko'ngilsiz.

Arazlashib qolaman, biroq bu qiliq –

Oshiqning istig'nosi kabi mantiqsiz [13. 133].

Biz mazkur misralarda tuyg'u-kechinmalar o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilganini ko'ramiz. Zotan, unda lirik qahramon oshiq, she'r esa ma'shuqa sifatida tasvir etilib, bu she'rni go'yo jonli bir inson singari gavdalantirishga yordam beradi. U oniy lahzalarda she'r bilan arazlashib, o'z hunariga ko'ngilsiz bo'lib qoladi. Biroq bu - vaqtinchalik holat. Shu bois ham holatlar tezda almashinib, bir zumda o'z qilig'i o'ziga ham erish tuyula boshlaydi. Chunki xuddi oshiq-ma'shuqlar bir-birining ko'ngil mulkiga yo'l topishgani singari, shoir va she'r o'rtasida ham yechimsiz ziddiyat bo'lishi mumkin emas.

Anglashiladiki, she'r va shoir obrazlari g'oyatda shaxsiy xususiyatga ega bo'lmish ijod jarayoni, ilhom onlari bilan bog'liq tuyg'u-kechinmalarni nafis poetik aks ettirish imkonini bergen. Ayni paytda G'. G'ulom ijodiy labaratoriyasining ich-ichiga kirib nazar tashlash, harakatdagi ijodiy lahzalarni kuzatishga yo'l ochgan.

Taniqli o'zbek shoiri Usmon Nosirning «*Yana she'rimga*» she'rida shunga o'xshash ifodalar kuzatiladi: “Butun umrim sening bo'yningda, Saharda qon tupursam, mayli, Men – Majnunman, she'rim, sen – Layli!” [9. 169]. Ushbu she'rda shoir – Majnun ya'ni oshiq, she'r – Layli ya'ni ma'shuqa sifatida ta'riflanadi. Bunda Layli va Majnun sevgisiga ishora qilish orqali shoir badiiy ijodning ilohiylikka daxldorligiga urg'u beradi. She'rga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini, samimiyatini talmeh san'ati vositasida ta'sirchan ifoda etadi.

G'afur G'ulomning yuqoridaq she'rida Usmon Nosir lirik qahramoni tuyg'ulari bilan muayyan mushtarakliklar mavjud. Avvalo, har ikkala shoir she'r va shoirni oshiq-mashuqlik tarzida idrok etish orqali she'rga munosabatini ifodalay olgan. Oshiq-ma'shuqlikni ifodalashda esa har shoir o'z yo'lidan borgan, o'ziga xos iqtidor egasi ekanligini namoyon eta olgan. Usmon Nosir butun umrini shu yo'lda fido qilishga tayyor. G'afur G'ulom lirik qahramoni esa she'rni jonli bir inson singari harakatda gavdalantiradi. U ba'zida she'r bilan arazlashib qoladi va bunday paytlarda o'z hunariga ko'ngilsiz bo'lib qoladi. Biroq bu vaqtinchalik holat. Keyingi satrda esa bu qilig'i shoirning o'ziga ham erish tuyuladi. Chunki oshiq ma'shuqlar bir-biri bilan, albatta, til topishib ketadi.

G'afur G'ulomning «*Mening bir satrim*» she'rida shoir farzandiga butun borlig'ini bag'ishlashga tayyor ota sifatida namoyon bo'ladi. Unda farzandiga bo'lgan mehru muhabbatini bayon qilar ekan, bolalar sho'xligini kapalakka qiyos qiladi, ularni «*chamanim ziynati lolalarim*» deb

erkalaydi. «*Biror tong bittasi yo'talib qolsa, jonimni hovuchlab dilim uradi*» singari satrlarda shoir muhabbatining darajasi, tuyg'ularining samimiyligi his qilinadi. She'r quyidagicha yakunlanadi: “Har bolam ufurgan nafasin atri she'rimning eng yetuk, eng yaxshi satri” [15. 50]. She'rning bolalarga bo'lgan samimi tuyg'ularni ifodalash bilan boshlanib, she'riyat bilan bog'lab yakunlanishi tasodif emas, albatta. She'rdagi asosiy ma'no she'r va satr obraziga yuklatilgan bo'lib, mazkur obrazlar nafaqat badiiyati, balki ramziy ma'nosi jihatidan ham e'tiborlidir.

Ma'lumki, «*nafas*» tiriklik, yashash, hayot ramzi, bola nafasining atri yashayotgan hayotning muattar va xushbo'yligi, bola beg'uborlik, pokizalik ramzi bo'lib, unga alohida urg'u berilishi bejiz emas. She'rning lirik qahramoni har bir bolasining nafasi atridan his qilgan beg'uborlik, muatttarlik va pokizalikni satrlarga ko'chiriladi.

Oybekning «*Ik she'r*» asarida ham badiiy ijod namunalari farzand bilan bog'liqlikda talqin etiladi. Haqiqiy she'rda his-tuyg'u va kechinmalar san'atkorona yoritilishini ta'kidlagan shoir uni farzandga qiyoslab shunday deydi:

Zavqqa to'lib, u yozdi ancha,
Qalb parchasi edi har satr...
Bitdi ilk she'r bu ilk farzandcha
So'ng ko'ksi tinch, kului yosh shoir!.. [8. 104].

G'afur G'ulom va Oybek ijodida she'rga xos xususiyatlarni farzand bilan bog'lab ifodalashda yaqinlik kuzatilsa ham, mohiyat jihatidan ular bir biridan farq qiladi. Unda har ikki shoirning o'ziga xos iste'dod egasi ekanligi namoyon bo'ladi.

Oybek ushbu she'rda ilk marotaba qo'liga qalam olib, badiiy ijod bilan shug'ullanayotgan shoir kechinmalarini ko'rsatishga urg'u bergen. Unda shoirning kechinmalari mohirona yoritilgan. Zavq bilan ijod qilayotgan shoirning har bir satri qalb parchasidir. Shoir dardi, iztirobi, orzummonlari ifodalangan bu she'r u uchun ilk farzanddek qadrlidir. Zero, unda shoirning butun borlig'i, ruhiyatidagi po'rtanalar aks ettirilgan.

G'afur G'ulom she'rni farzand bilan bog'lab yoritish orqali uning hayot bilan bog'liqligi, yashovchanligiga urg'u bergen bo'lsa, Oybek bu usul bilan badiiy ijod namunalarida shoirning dardi, kechinmalari, qayg'ulari aks etishi, bu kechinmalar yoritilgachgina shoir ko'ngli tinch bo'lishini poetik ifoda etadi.

G'afur G'ulomning badiiy ijod va uning sir-sinoatlari aks ettirilgan bir qator she'rlerida tuyg'ular tovlanishi kuylanadi. Bunday she'rlerida tongotar paytidagi yurtimiz fayzi, chiroyi, qalbida junbushga kelayotgan tuyg'u-kechinmalar shoirona nigoh bilan idrok etiladi. Shoir tong otish paytini kuzatishni juda xush ko'rgan she'rlerida tong otishi, quyoshning o'z zarrin nurlarini chor atrofga taratishi baland ruhda aks ettirgan:

Chinorlar uchida birinchi nurni
Dastavval ko'rishga ko'zim uchadi.
Qalam ham quyoshdek tez yurish bilan
Satrimdan satrimga qarab ko'chadi [14. 131].

Ma'lumki, tong otish paytida dastlabki quyosh nuri eng baland og'ochlardan bo'lgani uchun chinorlar uchiga tushadi va tezda tevarak-atrof yorishib ketadi. She'rda shunchaki tong otdi, degan ifoda qo'llanisa uning estetik qimmatiga putur yetgan bo'lardi. Shuning uchun ham san'atkor chinorlar uchiga tushadigan birinchi nurni ko'rishga ko'zi uchishini aytish orqali tong va uning o'z kayfiyatiga ta'sirini yoritadi. Shoirning chinorlar bargiga tushadigan birinchi nurni ko'rishga ishqibozligi shunchaki tasodif emas, albatta. U tong otishi va ijodni bir-biri bilan mushtaraklikda tasvirlaydi. Tong otishi shoir uchun ilhom manbaidir. Mazkur o'rinda «*qalam*» obrazi shoirning ijodga bo'lgan munosabatini yoritishga xizmat qilgan. Zero, bunda qalamning satrdan-satrga tez yurish bilan ko'chishi quyoshga o'xshatilishi bejiz emas. Quyosh tez yorishib tevarak-atrofni charag'on qilganidek, shoir ilhomni ham shunchalik jo'shqin keladi va satrdan satrga ildam ko'chadi. She'r ham butun olamni charag'on qilishga qodir.

Demak, shoir ushbu satrlarda quyosh, qalam, chinor uchidagi nur kabi poetik obrazlar vositasida o'z adabiy-estetik qarashlarini shoirona ifodalay olgan.

XULOSA

G'afur G'ulom nafaqat mazmun balki musiqiylik, ohandorlik, tuyg'u va kechinma ifodasi bilan shakliy mutanosiblik ta'minlansagina, she'r o'zining badiiy-estetik vazifasini bajara olishini,

ADABIYOTSHUNOSLIK

kitobxon qalbiga ta'sirchan yetib borishini teran anglagan. Bu uning she'rlarida badiiy ijod, adabiyot, so'z san'ati bilan bog'liq turfa xil obrazlar yordamida yorqin aks ettirilgan.

G'afur G'ulom ijodida ijodkor mas'uliyati, badiiy adabiyotning yetakchi xususiyatlari va bosh maqsadi, qalam ahlining o'z a'moli va e'tiqodiga sidqidildan sadoqati, badiiy asar yashovchanligining sir-asrori singari ko'plab ijtimoiy-siyosiy, adabiy-estetik masalalarga nazariy-amaliy jihatdan atroflicha munosabat bildirilgan.

Shoir o'z adabiy-estetik qarashlariga xos fikr-mulohazalar va g'oyatda nozik tuyg'ulari jilosini obrazli poetik ifodalashga muvaffaq bo'lgan. «*Aql va balog'at jonga payvasta*» bo'lgan shoir badiiy adabiyotni nafaqat ijodkor tilining tarjimoni, balki millat ma'naviy kamolining tayanchi, xalq manfaati va vatan saodatining kuychisi deb bilgan.

Umuman, shoir bugungi hur va ozod zamonamizni orzu qilib, umrining har bir lahzasi hasratiyu zavqini el bilan baham ko'rgan shoir edi. Shu bois ham asarlari bilan o'ziga mangu obida qo'ya bildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akbarov A. Shoiring hayoti. – T.: Adabiyot va san'at, 1973
2. Karimov G., Dolimov S. Muhammad Rizo Ogahiy (So'zboshi) Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1-jild. – T.: Adabiyot va san'at, 1971
3. Mamajonov S. Uslub jilolari. – T.: Adabiyot va san'at, 1972
4. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015. pp. 40-43
5. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006
6. Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.1. – T.: Fan, 1987
7. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – T.: Fan, 2004.
8. Oybek. Tanlangan asarlar. To'rt tomlik, Birinchi tom. – T.: Badiiy adabiyot, 1957.
9. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik. T.1. – T.: Adabiyot va san'at, 1969. .
10. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T., 2004.
11. Shota Rustaveli. Yo'llbars terisini yopingan pahlavon. – T.: «Fan», 1959
12. G'afur G'ulom va davr. – T.: Universitet, 2003.
13. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983
14. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.2. – T.: Fan, 1984
15. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 12 tomlik. T.3. – T.: Fan, 1984
16. O'zbek filologiyasining dolzarb muammolari. – Andijon, 2003
17. Islomjon Yakubov Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125
18. Islomjon Yakubov, Mubora Amonova. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels. Journal of Critical Reviews. 2020, № 7